



## O'ZBEKİSTONDA YER SOLIG'INI UNDIRISH MEXANİZMINING TAHLİLİ

Anvarov Alisher Xaybulloevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0004-8584-0742

[alisheranvarov@soliq.uz](mailto:alisheranvarov@soliq.uz)

**Annotation.** Keyingi yillarda dunyo mamlakatlari qisqa va uzoq muddatli byudjet-soliq siyosatiga oid strategiyasini ishlab chiqishda soliq to'lovchilar tomonidan soliqdan qochish holatlari oldini olish va uni kamaytirishning turli xil mexanizmlarini joriy etishga alohida e'tibor bermoqda. Shu bilan birga, sohalar o'rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar shakllantirilgan.

**Keywords:** soliq tushumlari, risk tahlili, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, ilg'or axborot-kommunikasiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

## АНАЛИЗ МЕХАНИЗМА ВЗИМАНИЯ ЗЕМЕЛЬНОГО НАЛОГА В УЗБЕКИСТАНЕ

Анваров Алишер Хайбуллоевич

Ташкентский государственный экономический университет

**Annotation.** В последние годы страны мира при разработке краткосрочных и долгосрочных стратегий бюджетной и налоговой политики уделяют особое внимание внедрению различных механизмов по предупреждению и сокращению уклонения налогоплательщиков от уплаты налогов. При этом изучались территории, изучался зарубежный опыт, формулировались научно-практические выводы и предложения по его применению в нашей стране.

**Ключевые слова:** налоговые поступления, анализ рисков, риски, эффективность, цифровая платформа, методы и инструменты, передовые информационно-коммуникационные технологии, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

## ANALYSIS OF THE MECHANISM OF LAND TAX COLLECTION IN UZBEKISTAN

Anvarov Alisher Khaybulloevich

Tashkent State University of Economics

**Abstract.** In recent years, countries around the world, when developing short- and long-term budget and tax policy strategies, have been paying special attention to the introduction of various mechanisms to prevent and reduce tax evasion by taxpayers. At the same time, areas have been studied, foreign experience has been studied, and scientific and practical conclusions and proposals have been formulated on its application in our country.

**Keywords:** tax revenues, risk analysis, risks, efficiency, digital platform, methods and tools, advanced information and communication technologies, analysis, optimization, tax incentives, tax rate.

### Kirish.

Respublikamizda ma'muriy, iqtisodiy, shuningdek, soliq tizimidagi islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida bugungi kunda respublikamizdagi suv resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, mavjud yer uchastkalari va mol-mulkni soliqqa tortishni yanada takomillashtirish, ularni baholash va hisobini yuritishda zamonaviy usullarni joriy qilish, yer va suv resurslari, yer qa'ridan qazib olinadigan foydali qazilmalardan foydalanish samaradorligini oshirishni ta'minlashga qaratilgan soliq tizimi takomillashtirilib borilmoqda. "Global iqlim o'zgarishi natijasida so'nggi yillarda davriy ravishda kuzatilayotgan suv tanqisligi va ichki irrigatsiya tarmoqlarining asosiy qismi yaroqsiz holatga kelganligi sug'oriladigan ekin yerlarining meliorativ holati yomonlashishiga va yillar davomida foydalanishdan chiqib ketishiga olib kelgan, keyingi yillarda yer qa'ridan foydalanuvchilarga soliq solish tartibini, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan va ekspertlarni jalg qilgan holda, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash tartibini yanada takomillashtirish" ni taqozo etmoqda

### Adabiyotlar sharhi.

O'zbek olimlardan Safarov (2006) "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tabiiy resurslardan samarali foydalanishini soliqlar vositasida rag'batlantirish" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiya ishida korxonalar va tashkilotlar tomonidan tabiiy resurslar bilan bog'liq ishlab chiqarish jarayoniga jalg qilingan kam chiqitli investitsiyalar uchun rag'batlantiruvchi imtiyozlarni qo'llash, tabiiy resurs soliqlarini ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimida ham qo'llashni ilmiy asoslagan, noqishloq xo'jalik korxonalaridan olinayotgan yer solig'ini hisoblab chiqish va undirishda ular foydalanayotgan yerning kadastr qiymatidan undirish mexanizmini joriy qilish masalasini taklif qilgan, yer osti boyliklaridan olinadigan soliqlarni hisoblashda hisobga olish usulini taklif etgan hamda bu soliqni undirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish yuzasidan ilmiy takliflar ishlab chiqqan.

Qurbanov (2020) esa o'zining dissertatsion va monografik tadqiqotlari asnosida O'zbekistonda "alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqaruvchi korxonalarda suv resurslaridan tejamli va samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida ularga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etish taklifini ishlab chiqqan, shuningdek, avtotransport vositalarini yuvishga ixtisoslashgan korxonalar uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni belgilashni asoslagan, suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlashda tadbirkorlik sub'ektlarining yillik yalpi tushumi 1 mld. so'mdan oshgan taqdirda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilari tarkibiga kiritilishi taklifi" ni ishlab chiqqan.

Toshqulov (2021) qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari soliq to'lovchilarning soliq to'lovchi sifatida maqomini aniqlash, umumbelgilangan tartibda soliqqa tortish, qishloq xo'jaligi korxonalari iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish maqsadida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha pasaytirilgan stavkalarni qo'llash, yangi barpo etiladigan bog', tokzor va tutzorlar egallagan yerlarni soliqlar vositasida rag'batlantirish masalalarining metodologik yo'nalishlarini ishlab chiqqan.

Iqtisodchi Kuznesov (1998) tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab quvvatlash masalalarini nazariy jihatdan tizimlashtirib, jarayonli paradigma sifatida uning bir qancha muhim ilmiy iqtisodiy tadbirkorlik qoidalari yoritib bergen. Xususan, "Moliyaviy qo'llab quvvatlash" konsepsiysi pul mablag'lari yoki moddiy aktivlarning kombinatsiyasi sifatida taqdim etilishini e'tirof etadi.

Amerikalik iqtisodchilar Zvi Bodsi va Robert Mertonlar (2013) moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimiga aniqlik kiritib, moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi sifatida ma'lum ob'ektlarga nisbatan qabul qilinadigan tadbirlarni amalga oshirish harakatlari majmuasi va ketma ketligi ekanligini ilgari surishgan. Ular moliyaviy ta'minot bilan bog'liq qo'llab

quvvatlash tizimi moliyaviy kategoriya sifatida molianing iqtisodiy mohiyati va funksiyalariga asoslanishi lozimligini e'tirof etishadi.

Iqtisodchi Barulin (2010), moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimini ikki tomonlama jarayon sifatida ko'rib o'tadi. Uning fikricha moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi, alohida iqtisodiy agentlarni moliyaviy ta'minot tizimini ma'lum noaniqliklar sharoitida optimal ta'minlashni muvofiqlashtirish hisoblanadi.

Iqtisodchi Ziyatkovskiyning (2000) fikricha, moliyaviy qo'llab quvvatlash yahlit tizim sifatida jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini barqaror rivojlanishini moliyaviy ta'minlash uchun qulay muhit yaratadigan moliyalashtirish manbalari va shakllari tizimidir.

Sokolskaya (2014) qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab quvatlash tizimiga aniqlik kiriib, qishloq xo'jaligi tadbirdorlik sub'ektlarining asosiy va aylanma, xususiy va qarz mablag'lar bilan ta'minlash, yetarli hajmdagi mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash uchun qulay moliyaviy shart sharoit yaratish tizimi ekanligini ta'kidlaydi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Resurslarni soliqqa tortishning nazariy asoslarini takomillashtirish asoslarini tadqiq qilishida ilmiy abstraksiyalash, induksiya-deduksiya kabi nazariy usullardan va kuzatish, statistik tahlil, vertikal va gorizontal tahlil va usullardan keng foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Yer resurslari va tabiiy resurslarni soliqqa tortilishini ta'minlaydigan yer solig'ini budgetga jalb qilinishi tahlilidan oldin, ularning budget daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Soliqlarning turli darajadagi (respublika, mahalliy) budgetlar daromadlarini shakllantirishdagi ulushi, qaysidir soliq turining ichki xususiyatini to'liq yoritib bera olmaydi, sababi, soliq turi bo'yicha tushumning ulushiga tashqi subyektiv omillar, masalan davlatning progressiv soliqqa tortish ham katta ta'sir qilishi mumkin, davlat soliq stavkasini oshirib, soliq imtiyozlarini kamaytirishi orqali soliq tushumlarining hajmiga qanday darajada bo'lishini ta'minlashi mumkin.

Biroq, soliq turlari yoki soliq guruuhlarining davlat budgetini shakllantirishdagi ulushini baholash orqali, birinchidan, soliqlarning joriy qilinishining maqsadlariga qanchalik mosligini aniqlab bersa, ikkinchidan, real soliq to'lovchilar soni va qonunchilik doirasidagi amaldagi tartiblarga ko'ra, real hajmdagi soliq tushumlarining tushishini ko'rsatib beradi, uchinchidan, soliq turlarining prognoz ko'rsatkichlarining qay darajada bajarilishi orqali qonunchilik doirasida mazkur soliqlarni undirishdagi ayrim kamchilik va xatoliklarni qaytadan ko'rib chiqishga undaydi, to'rtinchidan, davlat budgetini kelgusi davrga bo'lgan muddatlarda o'rta muddatli rejalashtirishga miqdoriy ko'rsatkichlar sifatida xizmat qiladi. Demak, soliq turlari va ularning alohida guruuhlarining davlat budgetidagi ahamiyatini tahlil qilish ilmiy jihatdan o'z ahamiyatiga egadir.

Dunyo amaliyotida, iqtisodiy tahlilning muhim usullaridan biri bu soliq tushumlarining yalpi ichki mahsulot va aynan budgetdagi ulushini aniqlash orqali soliqlarning fiskal ahamiyatini aniqlash amal oshiriladi. Ushbu uslubiyatga amal qilgan holda resurs soliqlarining fiskal xususiyatlarini tahlil qiladigan bo'lsak, boshqa soliq guruhlari, ya'ni bilvosita va bevosita soliqlarga nisbatan unchalik yuqori emas.

Jadval ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak, jami soliqlarning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi 2018-2022-yillarda o'rtacha 20 foiz atrofida bo'lib turgan bo'lsa, resurs soliqlarining bunday xususiyati o'rtacha 2,5-3,0 atrofida tebranib turmoqda. 2023-yilgi davlat budgeti daromadida esa, resurs soliqlarining soliq yuki nuqtayi nazaridan avvalgi yillarga nisbatan biroz kamayganligini ko'rish mumkin. Resurs soliqlarining davlat budgetidagi ulushining keskin dinamik holatda emasligi, avvalo resurslarning cheklanganligi va ulardan foydalanish darajasi va ularda yuzaga keladigan soliq bazasining statik holatda bo'lishiga bog'liqligidir.

**1-jadval****Resurs soliqlarining davlat budgetidagi fiskallik darajasi tahlili**

Yillar	YAIM, mlrd.so'm	Davlat budgeti daromadlari	
		mlrd.so'm	YAIMdagi ulushi, %
2018	424 728,7	79 099,0	18,6
2019	529 391,4	112 165,4	21,2
2020	602 193,0	132 938,0	22,1
2021	734 587,7	164 680,3	22,4
2022	888,342	202 043	22,7
2023	1 068 044	232 107,1	23,3
<b>Shundan, resurs soliqlari</b>			
2018	424 728,7	12 663,4	3,0
2019	529 391,4	19 680,7	3,7
2020	602 193,0	21 257,0	3,5
2021	734 587,7	23 036,4	3,1
2022	888,342	23 913,0	2,7
2023	1 068 044	26 473,2	2,5

**Manba:** Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

Ushbu keltirilgan jadval ma'lumotlariga asoslanib tahlil qilish mumkinki, davlat budgeti daromadlarini shakllantirishda hamon bilvosita soliqlarning ulushi yuqori bo'lib qolmoqda. Resurs soliqlarining ulushi esa, bilvosita soliqlarga nisbatan qariyib 2,0-3,0 barobargacha past ulushga ega, sababi bilvosita soliqlarning soliq bazasini shakllanishi resurs soliqlariga nisbat anchayin dinamik holatga ega bo'ladi, vaholanki, soliq tushumlarining miqdori nominal qiymatni ko'rsatsa, ularning bazis ko'rsatkichga nisbatan (YAIM, davlat budgetiga nisbatan) hissasini ham tahlil qilmiy tadqiqot uslubiyatida katta ahamiyatga ega.

**2-jadval****Resurs soliqlarining boshqa soliq turlariga nisbatan fiskallik xususiyati tahlili**

№	Yillar	Daromadlar (%)	Soliqlar va boshqa daromadlar			
			Bevosita soliqlar	Bilvosita soliqlar	Resurs soliqlari va mol-mulk solig'i	Boshqa daromadlar
1.	2018	<b>18,6</b>	3,7	9,7	3,0	2,2
2.	2019	<b>21,2</b>	6,0	8,8	3,7	2,7
3.	2020	<b>22,1</b>	7,5	7,7	3,5	3,3
4.	2021	<b>22,4</b>	8,0	7,7	3,1	3,6
5.	2022	<b>22,7</b>	7,3	8,0	2,7	4,8
6.	2023	<b>23,3</b>	7,8	8,5	2,5	4,6

**Manba:** Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

Daromadlar ko'rsatkichi aslida davlat budgetiga soliqlar va soliqsiz to'lovlar sifatida undirilgan majburiy to'lovlarini tavsiiflaydiki, aslida bu ko'rsatkich soliq yuki darajasini ham ifodalaydi. 2023-yilgi davlat budgetida uning darajasining avvalgi yillarga nisbatan oshishi soliq yukining ma'muriy instrumentlar emas, balki iqtisodiy holat, ya'ni soliq amaldagi soliq stavkalari umumiy darajasi keskin o'zgarmaganda bir sharoitda yalpi qo'shilgan qiymat va daromad hamda realizatsiya hajmlarining oshishi hisobiga yuz berishini ifodalaydi.

Agar, resurs soliqlari va mol-mulk solig'i bo'yicha tushumlarni yillar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak uning davlat budgetidagi miqdori oshib borgan, 2022-yilda 23,9 trln. so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 0,9 trln. so'mga yoki 3,8%ga oshganligini ko'rish mumkin. 2022-yilda resurs soliqlari bo'yicha tushumlarning tarkibida mol-mulk va yer soliqlarining

ulushi 2021-yilga nisbatan 5,7% va 4,2%ga oshib, yer qa'ridan va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarning ulushi mos ravishda 10,5% va 0,1%ga kamaygan.

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha tushumlar 2022-yilda 3,4 trln. so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 789 mlrd. so'mga yoki 30,2%ga oshgan, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha tushumlarning o'sishiga bir qator omillar ijobjiy ta'sir ko'rsatgan.

Jumladan, obyektlarning ayrim turlari egallagan yer uchastkalariga nisbatan yer solig'i stavkalariga qo'llaniladigan pasaytiruvchi koeffitsienti 0,3 dan 0,4 ga oshirilishi hisobiga 51 mlrd. so'm, qishloq xo'jaligi uchun yerlar bo'yicha 2021-yilda amalda bo'lgan bazaviy soliq stavkalarini 7%ga indeksatsiya qilinishi hisobiga qo'shimcha 145 mlrd. so'm tushumlar kelib tushgan.

### 3-jadval

#### **Yer solig'i bo'yicha soliq tushumlarining tahlili (mlrd. so'm)**

№	Ko'rsatkichlar	yillar					
		2018	2019	2020	2021	2022	2023
1.	Jami davlat budjeti daromadlari	79099,0	112165,4	132938,0	164680,3	<b>202 043</b>	232 107,1
2.	Jami resurs soliqlari bo'yicha soliq tushum	12 663,4	19 680,7	<b>21 257</b>	<b>23 036</b>	<b>23 913</b>	26 473,2
3.	Yer solig'i bo'yicha soliq tushumlari	1504,2	2313,2	2 386,6	4 082,8	5 306,0	5 805,5
	Jumladan:						
	<b>Yuridik shaxslar yer solig'i</b>	624,8	1 134,7	1 156,1	2 616,0	3 405,0	3 874,5
	jumladan:						
	Qishloq xo'jaligi korxonalaridan tushum	216,2	273,1	150,6	46,5	17,1	21,3
	<b>Jismoniy shaxslar yer solig'i</b>	663,2	905,4	1 079,9	1 420,3	1 883,9	1 909,7
4.	Yer solig'i bo'yicha soliq tushumlarning davlat budjeti daromadlaridagi ulushi (%)	1,9	2,0	1,8	2,4	2,6	2,5
	Yer solig'i bo'yicha soliq tushumlarning resurs soliqlari bo'yicha tushumlaridagi ulushi (%)	11,8	11,7	11,2	17,7	22,1	22,0
	Yuridik shaxslar yer solig'i bo'yicha tushumlarning davlat budjeti daromadlaridagi ulushi (%)	0,8	1,0	0,8	1,5	1,6	1,6
	Jismoniy shaxslar yer solig'i bo'yicha tushumlarning davlat budjeti daromadlaridagi ulushi (%)	0,8	0,8	0,8	0,8	0,9	0,8

*Manba: Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.*

Shu bilan birga, 2022-yilda yer solig'i bo'yicha soliq stavkalarining aniq miqdorlari mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan hududlarning iqtisodiy rivojlanishi va tumanlarning nufuziga ko'ra (ushbu huquq 2021-yilda mahalliy davlat hokimiyati organlariga taqdim etilgan), kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo'llagan holda bazaviy stavkalar asosida belgilanadi.

Albatta, yer solig'i to'lovchilarining soni oxirgi besh yillikda o'zgarishining dinamik holatiga bir qator omillar ta'sir qilgan bo'lib, bizningcha, bu qishloq xo'jaligidagi korxonalar (asosan fermer xo'jaliklari)ning optimallashtirilishi, yer uchastkasiga ega bo'lgan boshqa tarmoqlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar faoliyatining turlicha holatda tugatilishi hisobiga yer maydonlari hajmi o'zgarmasada soliq to'lovchilar soniga ta'sir qiladi. Ammo, yer uchastkalariga belgilangan soliq stavkalari asosida soliq tushumlari hisoblanib, budjetga undirilshi lozim bo'ladi.

## 4-jadval

**Yer solig'i bo'yicha soliq to'lovchilar dinamikasining tahlili (ta)**

№	Ko'rsatkichlar	Yillar (1-yanvar holatiga)					
		2018	2019	2020	2021	2022	2023
1	Jami soliq to'lovchilar	14880145	16301978	18868626	20363421	19775508	21321218
2	Jami resurs soliqlari bo'yicha soliq to'lovchilar	10156356	11350099	13383041	14502686	14389575	14807298
3	Yer solig'i bo'yicha soliq to'lovchilar	4807 043	5336 535	7 155 071	7410 371	6 719 800	6 909 258
	Jumladan:						
	<b>Yuridik shaxslar yer solig'i bo'yicha soliq to'lovchilar</b>	5 109	11 241	77 557	65 556	77 989	70 782
	Yer solig'i to'laydigan qish-loq xo'jaligi korxonalari soni	146 557	154 325	94 811	89 276	92 520	109 465
	<b>Jismoniy shaxslar yer solig'i bo'yicha soliq to'lovchilar</b>	4655 377	5170 969	6982 703	7255 539	6549 291	6 729 011
4.	Yer solig'i bo'yicha soliq to'lovchilarning jami soliq to'lovchilar sonidagi ulushi (%)	32,5	32,7	38,0	36,4	34,0	32,4
	Yer solig'i bo'yicha soliq to'lovchilarning jami resurs soliqlari to'lovchilar sonidagi ulushi (%)	47,3	47,0	53,4	51,0	46,6	46,6
	Yuridik shaxslar yer solig'i bo'yicha soliq to'lovchilar-ning jami soliq to'lovchilar sonidagi ulushi (%)	0,5	0,6	0,4	0,3	0,4	0,3
	Jismoniy shaxslar yer solig'i bo'yicha soliq to'lovchilar-ning jami soliq to'lovchilar sonidagi ulushi (%)	31,2	31,7	37,0	35,6	33,1	31,5

**Manba:** Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasining "2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-4938-sون Qarorining 14-bandiga muvofiq, Kadastr agentligi, «O'zdaverloyiha» ilmiy-loyihalash instituti, Davlat soliq qo'mitasi va Davlat statistika qo'mitasi bilan birgalikda 2021-yil 1-aprelgacha qishloq xo'jaligi yerlari bor yuridik shaxslar, jumladan, dehqon xo'jaliklariga yerlarni soliqqa tortish uchun normativ qiymatini yetkazish yuklatilgan bo'lib, bugungi kunda Davlat soliq qo'mitasining Resurs soliqlar ma'muriyat chiligi boshqarmasi tomonidan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning normativ qiymatlari to'g'risidagi ma'lumotlarini soliq to'lovchilarga yetkazish hamda amaliyotga joriy etish bo'yicha Qishloq xo'jaligi vazirligi «O'zdaverloyiha» davlat ilmiy-loyihalash institutining qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning normativ qiymatlari to'g'risidagi taqdim etgan ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining www.soliq.uz veb-saytiga joylashtirildi va soliq to'lovchilarning shaxsiy kabinetiga xat orqali PDF fayl ko'rinishida shakllantirilgan xabarnomalar yuborilgan, hozirgi kunda esa mana shu tartibda yer solig'i to'lovchilariga yerlarning normativ qiymatlari aniqlanib, soliq summasi aniqlanib kelinmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda 2022-yil holatiga ko'ra O'zbekistonda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni soliqqa tortish maqsadida ularning normativ qiymatini belgilanishini tahlil qiladigan bo'lsak, (5-jadval) jami sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarining 1 ga yerning normativ qiymati 17056,65543 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, jami sug'orilmaydigan qishloq xo'jaligi yerlarining 1 ga yerning normativ qiymati 69,81430932 ming so'mni tashkil etgan,

aynan shu ko'rsatkichlar jami yaylov yerlar, sug'oriladigan hududdagi qurilishlar, inshootlar va xonodonlar, qurilishlar, inshootlar va xonodonlar kesimida ham aniqlangan

### 5-jadval

#### O'zbekistonda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerkarni soliqqa tortish maqsadida ularning normativ qiymatini belgilanishi (2022-yil 1-yanvar holatiga)

Ko'rsatkichlar	1 ga yerning normativ qiymati, ming so'm	Maydoni, ga	Umumiy narxi, ming so'm
Sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerkarni jami	17056,65543	3 459 066,57	59000106575
Jami yaylov yerkarni	47,9143727	7911183,484	379059394
Sug'orilmaydigan qishloq xo'jaligi yerkarni jami	69,81430932	9088302,089	634493533,2
Sug'oriladigan hududdagi qurilishlar, inshootlar va xonodonlar	41039,22997	9789,2487	401743228,7
Lalmi hududdagi qurilishlar, inshootlar va xonodonlar	296,375692	494,261	146486,9459
Qurilishlar, inshootlar va xonodonlar jami	39080,98765	10283,5097	401 889 715,598
<b>Jami:</b>	<b>X</b>	<b>12 983 970,102</b>	<b>64 526 617 272,630</b>

**Manba:** O'zbekiston Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

O'zbekiston Yangi tahrirdagi Soliq kodeksining 427-moddasi (Soliq bazasi)ga asosan yuridik shaxslarni soliqqa tortishda soliq bazasi sifatida "qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerkarni bo'yicha – soliq imtiyozlari sifatidagi soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holda, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerkarni bo'yicha – ushbu soliq imtiyozlari tarzidagi soliq solinmaydigan yer uchastkalari chegirib tashlangan holda, yer uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq aniqlangan normativ qiymati, meva-sabzavotchilik qishloq xo'jaligi korxonalari uchun meva-sabzavotchilik mahsulotlari egallagan yerkarni esa – yer uchastkasining umumiy maydoni" (Кодекс, 2023) dir.

Biz tahlilimizga asos sifatida ikkita fermer xo'jaliklari ("Aziz" fermer xo'jaligi, "Sardor" fermer xo'jaligi)ni olganmizki, ularning umumiy yer maydoni o'rtacha 7-9 getktarni tashkil etadi. Bu ikki fermer xo'jaligining ixtisoslashuvi bir biridan farq qiladi, shu boisdan ham ularning, jumladan, "Aziz" fermer xo'jaligi bog'dorchilikka ixtisoslashgan 1 ga yerning normativ qiymati, 37840,7 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, chorvachilikka ixtisoslashgan "Sardor" fermer xo'jaligining haydalma yerkarni bo'yicha 1 ga yerning normativ qiymati, 9494,4 ming so'mni tashkil etgan, ya'ni anchayin kamroqdir, vaholanki, bu fermer xo'jaligining yer maydoni "Aziz" fermer xo'jaligiga nisbatan ko'proqdir (1,6 getktarga ko'p), demak, yerning normativ qiymati yerkarning strukturaviy sifatiga bog'liq bo'ladi.

Bu yerda yana shu narsaga e'tibor berish kerak bo'ladiki, qishloq xo'jalik tarmog'ida faoliyat yurituvchi korxonalardan yer solig'ini undirishda tahlil qilayotgan mazkur ikki fermer xo'jaligida 1 ga yerning normativ qiymati farqlansada, ularning ikkalasi ham 0,7 ga dan sug'oriladigan hududdagi qurilishlar, inshootlar va xonodonlar, qurilishlar, inshootlar va xonodonlar egallagan yer uchastkalariga ega bo'lib, ularning ikkalasida ham 1 ga yerning normativ qiymati bir xil ko'rsatkichga (18988,7 ming so'm) va normativ qiymatining umumiy narxi ham bir xil (13292,1 ming so'm) bo'lgan. Davlat soliq qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilning o'zida yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan 189,2 ming obyektlarning barchasida soliqqa tortiladigan va ortiqcha egallagan yer maydonlari, 58,6 mingtasida umumiy yer maydonlari hamda ularning nomi va STIRi to'g'risidagi ma'lumotlari (xato yoki) mavjud emas. Kadastr agentligi tomonidan ma'lumotlarning to'g'ri va to'liq yetib kelmasligi oqibatida yuridik shaxslar tomonidan taqdim etib kelayotgan yer solig'i va mol-mulk solig'i hisobotlari va agentlik ma'lumotlarining solishtirma tahlilida nomutanosibliklar vujudga kelmoqda.

## 6-jadval

**Soliq to'lovchilarning yerlarini bonitet qiymatlari tarkibi bo'yicha tahlili**

№	Yer resurslarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar	Soliq to'lashga asos bo'lgan miqdoriy ko'rsatkichlar	Yer resurslarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar	Soliq to'lashga asos bo'lgan miqdoriy ko'rsatkichlar
"Aziz" fermer xo'jaligi		Sardor fermer xo'jaligi		
1	<b>Ixtisosligi:</b>	Bog'dorchilik-uzumchilik	<b>Ixtisosligi:</b>	Chorvachilik
	<b>Umumiyl maydoni (ga)</b>	7,2	Umumiyl maydoni (ga)	9,8
	Umumiyl normativ qiymat so'mda	224681,5	Umumiyl normativ qiymat so'mda	157358,5
	Umumiyl narxi, ming so'm	246060,1	Umumiyl narxi, ming so'm	106336,9
	Sug'oriladigan yerlarning o'rtacha ball boniteti	77	Sug'oriladigan yerlarning o'rtacha ball boniteti	51,7
	Sug'orish uchun suv chiqarish usuli hisobga olinadigan koeffitsient	1	Sug'orish uchun suv chiqarish usuli hisobga olinadigan koeffitsient	1
	<b>Bog'zorlar:</b>		<b>Haydalma yerlar:</b>	
	1 ga yerning normativ qiymati, ming so'm	37840,7	1 ga yerning normativ qiymati, ming so'm	9494,4
	Maydoni, ga	5,8	Maydoni, ga	8,4
	Umumiyl narxi, ming so'm	219475,8437	Umumiyl narxi, ming so'm	79752,7
	Sug'oriladigan hududdagi qurilishlar, inshootlar va xonardonlar:		Sug'oriladigan hududdagi qurilishlar, inshootlar va xonardonlar:	
	1 ga yerning normativ qiymati, ming so'm	18988,7	1 ga yerning normativ qiymati, ming so'm	18988,7
	Maydoni, ga	0,7	Maydoni, ga	0,7
	Umumiyl narxi, ming so'm	13292,1	Umumiyl narxi, ming so'm	13292,1
			Qurilishlar, inshootlar va xonardonlar jami	
			1 ga yerning normativ qiymati, ming so'm	18988,7
			Maydoni, ga	0,7
			Umumiyl narxi, ming so'm	13292,1

**Manba:** "Aziz" fermer xo'jaligi, Sardor fermer xo'jaligi va Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan.

Bu esa, yer solig'i bazasini aniqlashda va soliq tushumlarini to'g'ri aniqlashda o'zining salbiy ta'sirlarini ko'rsatmoqdaki, shuning uchun yerlarning normativ qiymatlarini aniqlashtirish bilan shug'ullanadigan tashkilotlar (kadastr agentligi) va soliq xizmati organlari o'rtasidagi o'zaro integratsiyani rivojlantirish talab etiladi.

Amaldagi Soliq kodeksining 426-moddasiga muvofiq "mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining soliq solish obyekti" (Кодекс, 2023). Demak, yer uchastkalarining barcha qismi emas, balki, qayd etilganidek, Soliq kodeksining 126-moddasi yer solig'iga tortilmaydigan yer uchastkalaridan tashqari yer uchastkalari soliqqa tortildi.

Quyidagi keltirilgan 7-jadvaldagi ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsa, 2022-yilda Respublika bo'yicha, shuningdek, (jadvalning katta hajm olishligini e'tborga olgan holda) ikkita hudud – Toshkent shahri va viloyati kesimida yer solig'ini to'lovchilar soni va ularga ajratilgan yer maydonlari uchun hisoblangan va amalda to'langan soliq to'lovlariga nazar qiladigan bo'lsak, hisoblangan soliq summasi va amalda to'langan soliq miqdori o'rtasida katta farq mavjud (Toshkent shahridan tashqari). Bu esa, yer solig'ini hisoblash va budgetga kelib tushishidagi bunday farqlar yer solig'i bo'yicha soliq qarzdorligining oshishiga olib kelishi mumkin.

7-jadval

**Qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtiruvchi korxonalar va ularning yer maydonlari va  
ularning 2022-yilda to'lagan soliqlari tahlili (mlrd. so'm)**

	Ko'rsat kichlar	Jami	Bog'dor-chilik-uzumchilik	Boshqalar	G'alla-chilik	Qorako'l chilik	Paxta-g'allachilik	Polizchilik	Sabza-votchilik	Chorva-chilik	2022-yil uchun hisoblangan yer solig'i	2022-yilda to'langan yer solig'i
<b>Respublika bo'yicha jami:</b>												
1	Soni	103600	29 202	17 974	8 705	221	29 420	299	5 620	12 159	476,4	241,1
2	Yer maydoni (ming hektar)	19,6	459,7	2 062,3	618,6	1 074,9	2 796,1	6 649,1	84,3	5 881,3		
<b>Toshkent viloyati bo'yicha:</b>												
3	Soni	9 697	3 116	1 716	828	3,0	2 001	6	983	1 044	61,4	33,8
4	Yer maydoni (ming hektar)	0,7	65,7	102,8	48,6	0,0	209,3	174,9	14,4	131,8		
<b>Toshkent shahri bo'yicha:</b>												
5	Soni	19	0,0	19	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,2	0,2
6	Yer maydoni (ming hektar)	0,0	0,0	0,3	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0		

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi hamda Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallifning hisob-kitoblari.

## 8-jadval

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-iyundagi PF-162-sон Farmoni  
bilan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha 2022-yilda  
hisoblangan mol-mulk solig'i to'g'risida ma'lumot<sup>1</sup> (mlrd.so'm)**

Hudud nomi	Hisobot taqdim etgan sub'ektlarda				Farqi		
	O'zgartirish kiritishdan oldin		O'zgartirish kiritilganda				
	soliq bazasi	soliq summa	soliq bazasi	soliq summa	soliq bazasi	soliq summa	Foiz
<b>Jami</b>	<b>159 245,5</b>	<b>1 687,1</b>	<b>309 720,2</b>	<b>3 154,2</b>	<b>150 474,7</b>	<b>1 382,6</b>	<b>187</b>
YIRIK DSI	98 797,0	1 035,0	150 019,1	1 756,0	51 222,1	721,0	169,6
Qoraqalpog'iston	2 138,2	18,9	4 531,1	42,3	2 392,8	23,3	224,2
Andijon	1 586,4	20,4	5 445,0	54,0	3 858,6	34,3	265,0
Buxoro	5 686,2	27,6	11 738,8	67,4	6 052,6	39,7	244,5
Jizzax	1 651,7	14,1	4 089,8	37,7	2 438,1	24,0	267,5
Qashqadaryo	3 081,2	29,8	8 939,6	75,0	5 858,4	43,8	251,4
Navoiy	1 544,9	13,9	5 205,8	28,6	3 660,9	14,7	205,7
Namangan	1 620,9	23,2	6 222,1	54,5	4 601,2	30,8	234,9
Samarqand	3 868,3	39,2	9 240,7	84,1	5 372,4	44,3	214,6
Surxondaryo	2 280,2	19,5	7 327,4	57,3	5 047,2	38,2	294,7
Sirdaryo	2 064,5	16,1	7 504,6	31,9	5 440,1	16,0	198,3
Toshkent v	6 577,2	86,9	19 530,3	155,1	12 953,2	67,4	178,5
Farg'ona v	5 643,4	46,5	14 161,5	111,5	8 518,1	64,2	239,7
Xorazm v	2 620,4	25,5	5 635,4	49,6	3 015,0	24,3	194,4
Toshkent sh	20 084,7	270,6	50 128,7	549,1	30 044,0	279,0	202,9

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, 2022 yilda hisobot taqdim etgan 77 123 ta korxona tomonidan kiritilgan o'zgartirish natijasida eng kam me'yor qo'llanilishi hisobiga va mulk qiymatini qayta baholatishi hisobiga soliq bazasi 150 474,7 mlrd.so'mga va soliq summasi 1 382,6 mlrd.so'mga yoki 187 foizga oshgan. Ko'chmas mul ob'ekti bo'lgan bino va inshootlarning bahosi bozor qiymatidan ancha past bo'lganligi, mol-mulk solig'i tushumida sezilarli ta'sir qildi. Shu sababli, bino va inshootlarning bahosini bozor bahosiga yaqinlashtirish maqsadida ko'chmas mulk ob'ekti bo'lgan binolar va inshootlarga nisbatan soliq bazasini hisoblashda 1 kv. metr uchun eng kam qiymat qonunchilikka kiritilishi natijasida mol-mulk solig'i bo'yicha soliq solishningadolatlilik prinsipi ta'minlanib, mahalliy byudjetga 2022-yilda 3 154,2 mlrd.so'm hisoblanishiga erishildi. Natijada, belgilangan prognoz ko'rsatkichlari joriy yilning 1 yanvar holatiga 141,9 foizga bajarildi. Mazkur norma kiritilishi bilan ob'ektning 1 kv. metri qiymati ushbu bandda belgilangan eng kam qiymatdan past bo'lsa, soliq to'lovchi ko'chmas mulk ob'ektlari qiymatini mustaqil baholashni amalga oshirishga haqli ekanligi, bunda mustaqil baholash natijalari, shu jumladan soliq to'lovchi tomonidan o'tgan ikki yilda o'tkazilgan mustaqil baholash natijalari soliq bazasi sifatida e'tirof etilishi belgilandi. 2022 yilda **4,9 mingta** soliq to'lovchilar **7,1 mingta** ko'chmas mulk ob'ektlarini **180 ta** baholash tashkilotlariga mustaqil baholatish ishlarini amalga oshirgan. Ushbu baholatish natijasida bino va inshootlarning qiymati oldingi yilga nisbatan oshgan bo'lsada, 1 kv. metr uchun eng kam qiymatga nisbatan kamaygan va soliq to'lovchining ixtiyorida **507,9 mlrd so'm** mablag' qolgan.

Misol uchun, "VERITAS" MChJ baholovchi tashkiloti tomonidan "SHIFOBAXSH BULOQ" MChJga tegishli bo'lgan Yunusobod tumanida 3 960 kv.m ishlab chiqarish bino-inshootlarni ushbu baholovchi tomonidan 4 600,6 mln.so'mga yoki 1 kv.m uchun o'rtacha 1,1 mln so'mdan baholangan. Lekin ushbu ob'ekt joylashgan xududga soliq kodeksi bilan 1 kv.m uchun 2,5 mln.so'mdan eng kam qiymat belgilangan. Mazkur holatda jamiyatga tegishli bo'lgan ob'ekt

<sup>1</sup> Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

minimal qiymat bilan hisoblanganda ( $3960 \times 2,5$  mln.so'm) 9 900,0 mln.so'mlik qiymatga ega bo'lib, ( $9900 \times 1,5\%$ ) 148,4 mln.so'm mol-mulk solig'i hisoblanishi mumkin edi agar jamiyat baholashni amalga oshirmaganda. Baholatish hisobiga jamiyat tomonidan ( $4600,6 \times 1,5$ ) 69,0 mln.so'm soliq hicoblangan yoki 79,4 mln.so'm o'z ihtiyyorida qolmoqda. Ikkinchi tomondan qaraganda baholovchi tashkilotlar tomonidan bozor qiymatiga nisbatan qariyb 2 baravardan 161 baravargacha arzon baholamoqda.

### **Xulosa va takliflar.**

Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda hamon bilvosita soliqlarning ulushi yuqori bo'lib qolmoqda. Resurs soliqlarining ulushi esa, bilvosita soliqlarga nisbatan qariyb 2,-3,0 barobargacha past ulushga ega, sababi bilvosita soliqlarning soliq bazasining shakllanishi resurs soliqlariga nisabat anchayin dinamik holatga ega bo'ladi, vaholanki, soliq tushumlarining miqdori nominal qiymatni ko'rsatsa, ularning bazis ko'rsatkichga nisbatan (YaIM, davlat budgetiga nisbatan) hissasini ham tahlil qilish ilmiy taddiqot uslubiyatida katta ahamiyatga ega.

Resurs soliqlarining davlat budgetidagi ulushining keskin dinamik holatda emasligi, avvalo resurslarning cheklanganligi va ulardan foydalanish darajasi va ularda yuzaga keladigan soliq bazasining statik holatda bo'lishligiga bog'liqligidir.

Yer solig'ini hisoblash boshqa soliq turlariga nisbatan biroz soddaroq hisoblanadi. Biroq, tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, birgina 2022-yilning o'zida respublikamiz bo'yicha hisoblanishi lozim bo'lgan yer solig'i va amalda hisoblanib to'langan yer solig'i doirasida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer solig'i to'lovchilar tomonidan taqdim etilgan yer solig'i hisobotlari bo'yicha aniqlangan tafovutlar mavjuddir. Yer solig'ini undirish mexanizmi juda qadimiy evolyutsion rivojlanish xususiyatiga ega bo'lib, uni undirishda soliqqa tortishning kadastr usuliga asoslangan holda soliqqa tortib kelinmoqda. O'zbekiston soliq tizimida yer solig'ini undirish borasida mexanizmlar turlicha shakllarda takomillashtirilib borilishi bilan bir qatorda muammolar yuzaga kelgan.

### **Adabiyotlar/Literatura/Reference:**

*Barulin, S.V. (2010). Finance. – Moscow, KNORUS, 640 p.*

*Bodi, Zv., Merton R.K. (2013). Finance. – Moscow, Publishing House "Williams", 2013.*

*Bolshakov, S.V. (2006). Finance companies. Theory and practice. – Moscow: Book World, 2006. – 617 p.*

*Kuznetsov, S.A. (1998). Great Dictionary of the Russian language. – St. Petersburg, "Norint"*

*Sokolska, T.V. (2014). Financial support for agriculture. Economy and management of agribusiness, issue 1, p. 140-146.*

*Zyatkovskyy, I.V. (2000). The financial support of business – Ternopol, Economic thought, 215 p.*

*Кодекс (2023) <https://lex.uz/m/acts/4674902>. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси. 2023 йил. 427 модда.*

*Курбанов Д.Р. (2020) Ўзбекистон республикасида сув ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини оширишинг молиявий механизмларини таомиллаштириш. И.ф.д (DSc)... дис... автoreферати. – Т.: -38 б.*

*Сафаров F.A. (2006) Хўжалик юритувчи субъектларнинг табиий ресурслардан самарали фойдаланишини солиқлар воситасида рағбатлантириш. Иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автoreферати. – Т.: Академия. -26 б.*

*Тошқулов А.Х. (2021) "Қишлоқ хўжалиги корхоналари иқтисодий фаолиятини солиқлар воситасида рағбатлантириш масалалари". И.ф.д (DSc)... дис... автoreферати. – Т.: -47 б.*